



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

**05-01**

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

\_\_\_ - SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI  
KICHIK GURUH TARBIYACHISI

ning

## TAKOMILLASHTIRILGAN

# ILK QADAM

## DAVLAT O'QUV DASTURI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM  
VAZIRLIGI



har bir bola uchun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI UCHUN

# ILK QADAM

DAVLAT O'QUV DASTURI

/TAKOMILLASHTIRILGAN IKKINCHI NASHR/

**Dastur mualliflaridan:**

dastur mualliflari Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF)ga, xususan, dasturning takomillashtirilgan ikkinchi nashriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda qo'llab-quvvatlagan, o'z fikr va tavsiyalarini taqdim qilganlarga samimiy va chuqur minnatdorlik bildiradi.

*Mikailova Ulviya* UNICEF xalqaro maslahatchisi

*Shankar Dipa* UNICEF ta'lim seksiyasi rahbari

*Ismoilova Muazzam* UNICEF maslahatchisi

**Mualliflar:** *Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F.*

**Xalqaro ekspert:** *Mikailova Ulviya*

**Taqrizchilar:**

*Shin Young Yee* Koreya Respublikasining Toshkent shahridagi Puchon universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (PhD)

*Sharipova Sh.S.* A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent shahar filialining "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi boshlig'i, p.f.f.d (PhD), dotsent.

*Mamadaliyeva D.B.* Toshkent viloyati Angren shahar 38-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

**Muharrirlar:** *Isxakova M.R., Abdunazarova N.F., Maxmudova D.T.*

**Mas'uliyatni cheklash**

Ushbu hujjatdagi fikrlar va bayonotlar faqat mualliflarga tegishli bo'lib, ular hech qanday tarzda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF), uning tashkilotlari, boshqaruv kengashi yoki ularning vakili bo'lgan mamlakatlarga tegishli emas.

Dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 23-dekabrda 10-sonli bayonnomasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.



## MUNDARIJA

TUSHUNTIRISH XATI.....	5
<b>I-BOB. UMUMIY QOIDALAR .....</b>	<b>7</b>
1.1. Davlat o'quv dasturining qo'llanilishi .....	8
1.2. MTTning maqsad va vazifalari.....	8
1.3. Pedagogning roli .....	8
<b>II-BOB. MTT TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSAD VA TAMOYILLARI .....</b>	<b>10</b>
2.1. MTT ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi .....	11
2.2. MTTda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari.....	11
2.3. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil etish .....	12
2.4. Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lim) .....	12
2.5. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik .....	13
<b>III-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV .....</b>	<b>14</b>
3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari .....	15
3.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.....	16
3.2.1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari .....	17
3.2.2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari.....	17
3.2.3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari.....	17
3.2.4. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari.....	18
3.2.5. "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari .....	18
<b>IV-BOB. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI .....</b>	<b>19</b>
4.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati.....	20
4.2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish .....	21
<b>V-BOB. BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI BO'YICHA YUTUQLARI.....</b>	<b>24</b>
<b>VI-BOB. RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL QILISH.....</b>	<b>26</b>
<b>VII-BOB. DAVLAT O'QUV DASTURI BO'YICHA KUTILAYOTGAN TA'LIMYIY NATIJALAR.....</b>	<b>28</b>
<b>IX-BOB. RESURS TA'MINOTI .....</b>	<b>30</b>
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>32</b>
<b>"ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURIGA ILOVALAR .....</b>	<b>33</b>
<b>1-ilova. MTT ta'lim dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar .....</b>	<b>34</b>
<b>2-ilova. MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi .....</b>	<b>42</b>
Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi.....	42
Maktabgacha ta'lim va tarbiya muqobil shakllarining namunaviy kun tartibi .....	44

<b>3-ilova.</b>	Namunaviy o'quv reja .....	45
	Kichik (3 yoshdan 4 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori ....	45
	O'rta (4 yoshdan 5 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	46
	Katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	47
	Maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori.....	48
	Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllari guruhlarida amalga oshiriladigan bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori .....	49
<b>4-ilova.</b>	Namunaviy yillik mavzuli reja .....	50
<b>5-ilova.</b>	Namunaviy haftalik reja .....	53
<b>6-ilova.</b>	MTTda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bayram tadbirlari ro'yxati.....	55
<b>7-ilova.</b>	Rivojlanish xaritasi .....	56
	3-4 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi .....	58
	4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi .....	65
	5-6 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi .....	72
	6-7 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi .....	80
<b>8-ilova.</b>	6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.....	87
<b>9-ilova.</b>	Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi.....	90
<b>10-ilova.</b>	Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati .....	92

## QISQARTMALAR

**BHTK** – “Bola huquqlari to’g’risida”gi Konvensiya

**Davlat o’quv dasturi** – O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o’quv dasturi

**Davlat talablari** – O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari

**MT** – maktabgacha ta’lim

**MTT** – maktabgacha ta’lim tashkiloti

**MTV** – Maktabgacha ta’lim vazirligi

**TF** – tasviriy faoliyat

## TUSHUNTIRISH XATI

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq yaratilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ikkinchi nashri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan Davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug'ildi.

Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo'ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta'limda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- dasturning birinchi nashrini qo'llashda orttirilgan tajriba va uning tahlili;
- 2021-yilda respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari mutaxassislari, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o'rtasida o'tkazilgan manzilli milliy so'rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;
- maktabgacha ta'lim dasturlarini yaratish bo'yicha o'tgan yillar davomida to'plangan xalqaro tajriba.

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.

Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar Davlat o'quv dasturining quyidagi jihatlari o'z aksini topdi:

- **ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari** dasturning shaxsga yo'naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta'minlash zaruratini ta'kidlash uchun **batafsil ochib berildi va umumlashtirildi**;
- kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda **bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to'ldirildi**;
- bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni "bolaning ovozi", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga; loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga; individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga; kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lim olishni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

1 O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, ORQ-595-son

- **ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik yangilangan shaklda taklif etildi**, bunda ota-onalar va pedagoglarning umumiy maqsadi bolaga ta'lim va tarbiya berishdir; pedagog, oila va mahalliy hamjamiyat o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yanada xilma-xil imkoniyatlar taklif etildi;
- **ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari** bolalarning qiziqishlariga ko'ra, mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan **rivojlantiruvchi muhit** to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirildi;
- dasturning inklyuziv xususiyati MTTning alohida ehtiyojli har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda qo'shimcha yordam ko'rsatish majburiyatlari bilan mustahkamlandi;
- rivojlanish markazlarida tashkil etilgan bolalarning faoliyati loyiha mavzusi bilan to'ldirildi;
- **namunaviy kun tartibida** ta'lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt o'zgartirildi, bu esa o'z o'rnida bolalarning erkin o'yin faoliyati, bolalarning qiziqishlariga ko'ra mustaqil faoliyatiga, shuningdek, mavzuli loyiha faoliyatiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi;
- O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, xalqaro tajribani, shuningdek, boshlang'ich ta'lim bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida **o'quv reja** qisman o'zgartirildi;
- bola rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonini optimallashtirish uchun **bolaning rivojlanish xaritalari** qisman o'zgartirildi.

Davlat o'quv dasturini tadbiq etishda pedagoglarga yordam tariqasida "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga uslubiy yordam sifatida o'quv-uslubiy qo'llanmalar to'plami taklif etiladi. To'plam MTV mutaxassislari tomonidan BMTning O'zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF) bilan birgalikda ishlab chiqilgan bo'lib, oltita qo'llanmani o'z ichiga oladi: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish"; "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish"; "O'yin orqali ta'lim olish"; "Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi"; "Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik"; "Kuzatish va baholash".

Loyihaviy mavzuli faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish uchun "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini mavzuli rejalashtirish" qo'llanmasi taklif etiladi.



# I-BOB. UMUMIY QOIDALAR





**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

***Zokirjon Admin bilan***

***91-328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.***

***Kichik guruhlar uchun 05-01 takomillashtirilgan ilk qadam davlat o'quv dasturini to'liq holda olish uchun telegramda yozing.***



**Telegram kanalimiz:**

**@maktabgacha\_tt**

**Narxi: 10000**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**

**Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.**

**To'liq holda olganingizdan so'ng:**

**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**

**Internet veb-saytlarga joylamang.**

**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**